DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-11-31 **Pages: 361-366**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



THE LIFE AND SCHOLARLY ACTIVITY OF IMAM AL-SARAKHSI: ERA AND ENVIRONMENT

Mokhigul Rakhmonova
Teacher
General Secondary School No. 25, Fergana city
Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Imam al-Sarakhsi, Hanafi school, “Al-Mabsut”, fiqh, Islamic jurisprudence, Transoxiana, Khorasan, “Usul al-Sarakhsi”, Abdul Aziz al-Halwani, medieval scholarship

Received: 11.11.26
Accepted: 12.11.26
Published: 13.11.26

Abstract: This article examines the life and scholarly legacy of Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad al-Sarakhsi, one of the most prominent figures of the Hanafi school of law, known by the honorific title "Shams al-A’imma" (Sun of the Imams). It outlines the social and political setting of eleventh-century Transoxiana and Khorasan in which he lived, his formation as a jurist under his teacher Abdul Aziz al-Halwani, and the circumstances of his imprisonment following advice he gave to a ruler. Particular attention is given to the remarkable fact that his monumental work “Al-Mabsut” was dictated entirely from memory to his students while he was in prison, without access to any written sources..

IMOM SARAXSIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI: DAVR, MUHIT

Moxigul Raxmonova
Farg‘ona Shahar 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Imom Saraxsiy, hanafiy mazhabi, “Al-Mabsut”, fiqh, islom huquqshunosligi, Movarounnahr, Xuroson, “Usul as-Saraxsiy”, Abdulaziz al-Halvoniy, o‘rta asr ilm-fani

Annotatsiya: Mazkur maqolada hanafiy fiqhining yirik namoyandalaridan biri, “Shams al-A’imma” (imomlar quyoshi) laqabi bilan tanilgan Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Saraxsiyning hayoti va ilmiy merosi tahlil qilinadi. Olim yashagan XI asr Movarounnahr va Xuroson mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ijod qilgan. Alohida

e’tibor Saraxsiyning mashhur “Al-Mabsut" asarini aynan zindonda, hech qanday manbaga murojaat qilmasdan, xotirasidan shogirdlariga og‘zaki yetkazish orqali yaratganiga qaratiladi.

ЖИЗНЬ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИМАМА САРАХСИ: ЭПОХА И СРЕДА

Мохигуль Рахмонова
учитель общеобразовательной школы № 25 города Ферганы
Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Имам Сарахси, ханафитский мазхаб, «Аль-Мабсут», фикх, исламское право, Мавераннахр, Хорасан, “Усул ас-Сарахси”, Абдул-Азиз аль-Халвани, средневековая наука

Аннотация: В данной статье рассматривается жизненный путь и научное наследие одного из крупнейших представителей ханафитского мазхаба — Абу Бакра Мухаммада ибн Ахмада ас-Сарахси, известного под почётным титулом “Шамс аль-А’имма” (Солнце имамов). Освещается общественно-политическая обстановка в Мавераннахре и Хорасане XI века, в которой формировался учёный, его становление как факиха под руководством наставника Абдул-Азиза аль-Халвани, а также обстоятельства его заключения в темницу, вызванного советом, данным правителю. Особое внимание уделяется тому, как именно в тюрьме, не имея доступа ни к одной книге, ас-Сарахси надиктовал своим ученикам по памяти знаменитый труд “Аль-Мабсут”.

Kirish. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl as-Saraxsiy hanafiy mazhabining yirik faqihlaridan biri sifatida islom huquqi tarixida chuqur iz qoldirgan allomalardan hisoblanadi. Manbalarda uning to‘liq ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl as-Saraxsiy al-Hanafiy tarzida keltiriladi [1]. Saraxsiy yashagan davr Movarounnahrda Qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda diniy va dunyoviy ilmlar rivojlangan, fiqh maktablari shakllangan va ko‘plab ilm ahli faoliyat olib brogan [2]. Ana shu ilmiy muhit Saraxsiyning dunyoqarashi va ilmiy qarashlari shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Saraxsiy o‘zidan boy ilmiy meros qoldirgan. Uning “Al-Mabsut”, “Usul as-Saraxsiy” va “Sharh as-Siyar al-Kabir” kabi asarlari hanafiy fiqhini o‘rganishda muhim manbalar sifatida qadrlanadi. Ayniqsa, “Al-Mabsut” asarida turli fiqhiy masalalar keng yoritilib, ulamolar o‘rtasidagi qarashlar ham tahlil qilingan. Mazkur maqolaning maqsadi Imom

Saraxsiyning hayoti va ilmiy faoliyatini u yashagan davrning tarixiy-ilmiy muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganish hamda uning asosiy asarlarining hanafiy fiqhi rivojidagi o‘rnini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar sharxi. Tadqiqotning asosiy manbalarini Imom Saraxsiyning ilmiy merosi va uning hayoti haqida ma’lumot beruvchi tarixiy hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Xususan, N. Calderning “Encyclopaedia of Islam”dagi Saraxsiy haqidagi maqolasi, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Fiqhiy yo‘nalishlar va kitoblar” asari, Husain Kassimning Saraxsiy ilmiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqoti,“Buyuk ajdodlarimiz” to‘plami, Sherman A. Jacksonning hanafiy huquqiy tafakkuriga oid tadqiqoti va N. Calderning “Encyclopaedia of Islam”dagi maqolasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-biografik, manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy va matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-biografik metod orqali Saraxsiyning hayoti va ilmiy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy sharoitlar o‘rganildi. Manbashunoslik metodi yordamida uning asarlari va ular haqidagi ilmiy ma’lumotlarning mazmuni tahlil qilindi. Qiyosiy metod orqali Saraxsiyning fiqhiy masalalarga yondashuvi, turli qarashlarni bayon qilish va ularni dalillar asosida tahlil etish usuli ko‘rib chiqildi.

Muhokama va natijalar. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl as-Saraxsiy Xurosondagi Saraxs shahrida tug‘ilgan bo‘lib, keyinchalik Movarounnahrdagi yirik hanafiy faqihlaridan biriga aylangan. Saraxs shahri Buyuk Xuroson hududida joylashgan bo‘lib, tarixan ilm-fan va madaniyat rivojlangan hududlardan biri hisoblangan.

Turli manbalarga ko‘ra, Saraxsiy hijriy 483/milodiy 1090-yilda yoki hijriy 490/milodiy 1096-yilda vafot etgan. Uning hayoti XI asrda Movarounnahr va Xurosonda hanafiy fiqhining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Saraxsiy hanafiy faqihi Abdulaziz al-Halvoniydan ta’lim olgan. Abdulaziz al-Halvoniy o‘z davrining mashhur hanafiy huquqshunoslaridan biri bo‘lib, uning ilmiy an’anasi keyingi hanafiy olimlar faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Saraxsiy dastlab Saraxs shahrida diniy ta’lim olgan, Qur’on, hadis, sarf, nahv va balog‘at kabi ilmlarni o‘rgangan. Keyinchalik Buxoro va Samarqand kabi ilmiy markazlarda tahsilini davom ettirgan. Saraxsiy yashagan davr Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda Movarounnahr hududida diniy ilmlar, xususan, hanafiy fiqh maktabi rivojlangan. Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda ko‘plab faqihlar va olimlar faoliyat olib borgan.

Saraxsiyning hayotidagi murakkab davr. Imom Saraxsiyning hayotida turli noxush voqealar ham sodir bo‘lgan. Tuhmatchi va hasadgo‘y kishilar hayit kuni Qoraxoniy hukmdori Ibrohimxon sha’niga tegadigan yomon so‘zlar bilan Saraxsiyni qoralaganlar. Natijada Ibrohimxon uni Buxorodan O‘zganga surgun qilgan. Saraxsiy Movarounnahrning Farg‘ona vodiysidagi O‘zgand shahriga ko‘chib borgan va u yerda xoqon saroyida istiqomat qilgan. Manbalarda Imom

Saraxsiyning xoqonning iddasi chiqmagan ayolga uylanishi haromligi haqida fatvo chiqargani sababli hijriy 466-yilda zindonga solingani haqida ham ma’lumot beriladi. Saraxsiy uzoq vaqt qamoqda bo‘lganiga qaramay, ilmiy faoliyatini to‘xtatmagan. Aksincha, murakkab sharoitda ham o‘z bilimlarini shogirdlariga yetkazgan. Uning ilmiy faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri shundaki, qamoqda bo‘lgan davrida ham asarlarini shogirdlariga bayon qilib, ilmiy merosini davom ettirgan [3].

Saraxsiyning eng mashhur asarlaridan biri “Al-Mabsut” hisoblanadi. Mazkur asar hanafiy fiqhining muhim manbalaridan bo‘lib, unda turli huquqiy masalalar keng va batafsil yoritilgan.

“Al-Mabsut”da Saraxsiy fiqhiy masalalarni faqat bayon qilish bilan cheklanmay, ulamolar o‘rtasidagi turli qarashlarni ham tahlil qiladi. Asarda hanafiy ulamolarining fikrlari bilan bir qatorda boshqa huquqiy maktablarga oid qarashlar ham keltirilib, ularning dalillari muhokama qilinadi. Asarda istihson, noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalar, zakot, yerlarni o‘zlashtirish kabi ko‘plab fiqhiy masalalar keng yoritilgan. Saraxsiy masalalarni tizimli ravishda bayon qilib, turli qarashlarning asoslarini tushuntirishga harakat qilgan [4]. Shu jihatdan “Al-Mabsut” hanafiy fiqhining furū‘ sohasini o‘rganishda muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning ta’siri keyingi hanafiy fiqhining rivojida ham sezilarli bo‘lgan.

Saraxsiyning yana bir muhim asari “Usul as-Saraxsiy” bo‘lib, unda fiqhiy hukmlarni chiqarishning nazariy asoslari yoritiladi. Asarda ra’y, tizimli huquqiy fikrlash, qiyos va istihson kabi masalalar muhokama qilinadi [5].

Saraxsiy o‘zidan oldingi hanafiy usulchilarining qarashlariga murojaat qilgan holda, huquqiy masalalarni asoslash va tizimlashtirishga katta e’tibor bergan. Shu jihatdan “Usul as-Saraxsiy” hanafiy fiqhining metodologik asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda fiqhiy hukmlarni chiqarishda dalillarning o‘rni, qiyos va istihsonning qo‘llanilishi hamda huquqiy masalalarni mantiqiy asoslashga oid fikrlar bayon etiladi.

Saraxsiyning muhim asarlaridan yana biri “Sharh al-Siyar al-Kabir” hisoblanadi. Ushbu asarda musulmon davlatining boshqa davlatlar va xalqlar bilan munosabatlariga oid huquqiy masalalar muhokama qilinadi. Asarda urush va tinchlik, davlatlararo munosabatlar, shartnomalar, elchilik va o‘zaro munosabatlarning huquqiy jihatlariga oid masalalar tahlil qilinadi.Shu jihatdan mazkur asar islom huquqi tarixini hamda o‘rta asrlardagi xalqaro munosabatlarning huquqiy asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Husain Kassim Saraxsiy merosini tadqiq etar ekan, ayniqsa juristik preference, ya’ni istihson hamda shartnomalar va o‘zaro munosabatlarga oid qarashlarning ahamiyatiga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Imom Saraxsiyning ilmiy faoliyatini u yashagan tarixiy va ilmiy muhitdan ajratib o‘rganish mumkin emas. XI asrda Movarounnahrda hanafiy

fiqhining rivojlanishi va ilmiy markazlarning mavjudligi Saraxsiyning ilmiy qarashlari shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lgan. Saraxsiyning ilmiy merosida “Al-Mabsut” alohida o‘rin tutadi. Asarda fiqhiy masalalarning keng yoritilishi, turli qarashlarning keltirilishi va ularning dalillar asosida tahlil qilinishi Saraxsiyning ilmiy metodini ko‘rsatadi. “Usul as-Saraxsiy” esa uning huquqiy fikrlash va fiqhiy hukmlarni chiqarishning nazariy asoslariga katta e’tibor berganini ko‘rsatadi. Saraxsiy mavjud qarashlarni shunchaki keltirish bilan cheklanmay, ularning huquqiy asoslarini tushuntirishga va o‘zaro qiyoslashga intilgan.

Saraxsiy hayotining murakkab davrlari ham uning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq holda alohida ahamiyat kasb etadi. Unga nisbatan qilingan tuhmatlar va surgun qilinishi, shuningdek, qamoqda bo‘lgan davri haqidagi ma’lumotlar uning hayoti oson kechmaganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, u ilmiy faoliyatini davom ettirgan va o‘zidan katta ilmiy meros qoldirgan. Saraxsiy haqidagi manbalarda uning hayoti va vafot sanasiga oid ayrim tafovutlar mavjud. Shu sababli allomaning biografiyasiga oid ma’lumotlarni bir nechta manbalar asosida qiyosiy o‘rganish muhimdir.

Saraxsiyning fiqhiy merosi nafaqat alohida huquqiy masalalarni yoritishi, balki huquqiy fikrlash usullarini ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Uning asarlarida dalil, qiyos, istihson va turli huquqiy qarashlarni taqqoslashga katta e’tibor berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Imom Saraxsiy XI asrda yashab ijod qilgan, hanafiy fiqhining rivojiga katta hissa qo‘shgan yirik faqihlardan biridir. Uning ilmiy shakllanishida Movarounnahr va Xurosondagi boy ilmiy muhit, ayniqsa, hanafiy fiqh maktabining rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Saraxsiy hayotida turli qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lsa-da, ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Uning O‘zganddagi faoliyati va qamoqda bo‘lgan davri bilan bog‘liq ma’lumotlar allomaning hayotidagi murakkab sharoitlarni ko‘rsatadi. “Al-Mabsut” asari hanafiy fiqhining ko‘plab amaliy masalalarini keng yoritishi, turli qarashlarni taqqoslashi va huquqiy dalillarni tahlil qilishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

“Usul as-Saraxsiy” esa fiqhiy hukmlarning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. “Sharh al-Siyar al-Kabir” asari esa davlatlararo munosabatlar, shartnomalar va boshqa huquqiy masalalarni o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, Imom Saraxsiyning ilmiy merosi hanafiy fiqhi tarixini, Movarounnahrdagi huquqiy tafakkur taraqqiyotini va o‘rta asr islom huquqining rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarida huquqiy masalalarni dalillar asosida tahlil qilish, turli qarashlarni qiyoslash va fiqhiy bilimlarni tizimlashtirishga katta e’tibor berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Calder, N. “al-Sarakhsi, Muhammad b. Ahmad b. Abu Sahl Abu Bakr, Shams al-A’imma.” Encyclopaedia of Islam, Second Edition. Edited by P. Bearman, Th. Bianquis, C. E. Bosworth, E. van Donzel, and W. P. Heinrichs. Leiden: Brill, 2011.

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Фиқҳий йўналишлар ва китоблар. – Т.: “SHARQ” нашриёти, 2011. – Б. 153.

3. Buyuk ajdodlarimiz (mas’ul muharrir: M. Aminov, F. Xasanov). – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – 120 bet.

4. Kassim, Husain. Sarakhsi — Hugo Grotius of the Muslims: The Doctrine of Juristic Preference and the Concepts of Treaties and Mutual Relations. San Francisco: Austin and Winfield Publishers, 1994.

5. Jackson, Sherman A. “From Prophetic Actions to Constitutional Theory: A Novel Chapter in Medieval Muslim Jurisprudence.” International Journal of Middle East Studies, Vol. 25, No. 1, 1993, pp. 71–90.